

YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilda Toshkent viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 62 661,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yil bilan taqqoslaganda 102,6 % ga o'sdi. YaHM deflyator indeksi 2019- yil narxlariga nisbatan 113,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Toshkent viloyatining qo'shgan hissasi 10,8 % ga yetdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
		2019- yil	2020- yil	
	I. YaHM	53 759,4	62 661,7	102,6
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	50 183,7	59 839,0	102,6
	Mahsulotlarga sof soliqlar	3 575,7	2 822,7	102,7
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	50 183,7	59 839,0	102,6
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	12 460,2	14 858,1	102,0
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	26 237,4	31 940,4	103,9
	sanoat	23 816,6	28 942,6	103,8
	qurilish	2 420,8	2 997,8	105,2
	Xizmatlar	11 486,1	13 040,5	100,1
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 354,4	3 794,5	100,2

		Mrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
		2019- yil	2020- yil	
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 386,8	2 730,0	103,4
	boshqa xizmat tarmoqlari	5 744,9	6 516,0	98,7

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 21 113,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9 % ga yuqoridir.



Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va mutlaq o'sish sur'atlari











Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 95,5 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,5 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 24,8 % ni, sanoat tarmog'i 48,4 % ni, qurilish 5,0 % ni va xizmatlar sohasi 21,8 % ni tashkil qildi.





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)


		2019- yil	2020- yil
	I. YaHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati	93,3	95,5
	Mahsulotlarga sof soliqlar	6,7	4,5
	II. Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o`rmon va baliqchilik xo`jaligi	24,8	24,8
	Sanoat (qurilishni qo`shgan holda)	52,3	53,4
	sanoat	47,5	48,4
	qurilish	4,8	5,0
	Xizmatlar	22,9	21,8
	savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar	6,7	6,3
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,8	4,6
	boshqa xizmat tarmoqlari	11,4	10,9





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)




YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 102,0 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 24,8 %), sanoatda – 103,8 % (48,4%), qurilishda – 105,2 % (5,0 %), xizmatlar sohasida – 100,1 % (21,8%) ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 100,2 % (6,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 103,4 % (4,6%), boshqa xizmat tarmoqlarida 98,7% (10,9 %) dan iborat bo'ldi.



YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)



2020- yilda YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2020- yil

Yalpi hududiy mahsulot

2020- yilda YaHM deflyatori indeksi 2019- yil narxlariga nisbatan 113,6 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilishda – 117,7 %, sanoatda – 117,1 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jalida – 116,9 % qayd etildi.



YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilga nisbatan % da)



Toshkent viloyati Statistika boshqarmasi
Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi
Nashr uchun mas'ul: Sh.Bekpo'latov
Tel.: (71) 202-86-58